

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2022- yilning 2- choragida amalga oshirilgan ishlar

Masofaviy tarzda, videoaloqa orqali o'tkazilgan Hay'atning kengaytirilgan yig'ilishini Davlat statistika qo'mitasi raisi B. Begalov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga doir Davlat Dasturi" doirasida tizim oldiga belgilab berilgan topshiriqlarni so'zsiz, sifatli va o'z muddatida ijrosini ta'minlash borasida 2022-yilning II choragida amalga oshirilgan ishlar hamda statistika organlari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida gapirib o'tdi.

Shuningdek, "2022-yil uchun Davlat statistika ishlari dasturi" doirasida qo'mita va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2022-yilning II choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti hajmi joriy narxlarda **389 631,2** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davri bilan taqqoslaganda **5,4** % ga o'sdi.

Shuningdek, joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida, respublikada iste'mol tovarlari va xizmatlari narxlari **6,5** % ga oshdi. Umumiy hisobda iste'mol sektoridagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'rtacha o'sish sur'ati **8,9** % ni, nooziq-ovqat mahsulotlar **5,8** % ni va xizmatlar tariflarining o'sish sur'ati **3,3** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yilning yanvar-iyun oylari davomida iste'mol narxlari darajasining o'rtacha oylik o'sish sur'ati **1,1** % ga teng bo'ldi.

Respublika korxonlari tomonidan 2022-yilning yanvar-iyun oylari davomida **251,4** trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi **105,1** % ni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **131,7** trln. so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,7** % ga yetdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida investitsion faollikning oshganligi kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,4** % ni tashkil etdi. Respublikada jami **60,3** trln so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **106,2** % ga teng bo'ldi.

Davlat xizmatlari agentligi tomonidan ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022-yilning 1-iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 597 666 tani tashkil etib, ulardan 561 386 tasi yoki 93,9 % i faoliyat ko'rsatmoqda. 2022-yilning yanvar-iyun oylarida respublikada 51 708 ta korxonalar

va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa 2021-yilning mos davriga nisbatan 2 985 taga kam.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **160,5** trln. so'mni, 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,5** % ni tashkil etdi. Uning nominal hajmi **29,9** trln. so'mga oshdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 134 135,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 109,9 % ga oshdi. Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 2022-yilning yanvar-iyun oylarida 24,5 mlrd. AQSH dollarini, jumladan eksport – 9,9 mlrd. AQSH dollarini va import – 14,6 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning 1-iyul holatiga ko'ra respublika bo'yicha doimiy aholi soni 35603,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 332,1 ming kishiga yoki 2,1 % ga o'sdi.

So'z yakunida, Davlat statistika qo'mitasi raisi B. Begalov yig'ilish davomida kun tartibiga muvofiq, tizimda "Statistika dasturi"ning ijrosi hamda Hay'atning 2022-yil I yarim yillik ish rejasiga kiritilgan tadbirlarning bajarilishi bo'yicha qo'mitaning mutasaddilari tomonidan hisobotlar berish jarayonida har bir masalani atroflicha muhokama qilinishini ta'kidladi va kun tartibidagi navbatdagi masala muhokamasiga o'tilishini e'tirof etdi.

Hay'atning kengaytirilgan yig'ilishi kun tartibiga muvofiq, rais o'rinbosarlari 2022-yilning 27-28-iyul kunlari komplekslar bo'yicha ishchi tartibida o'tkazilgan muhokamalarda ko'rilgan masalalar haqida gapirib o'tdilar. Xususan, har bir masala atroflicha muhokama qilinganligi, xato va kamchiliklar yuzasidan tegishli hududiy statistika idoralari rahbarlari va mas'ullari hisobot berganliklari ta'kidlandi.